

JAMIYAT MA'NAVIY YUKSALISHI SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYANING AHAMIYATI

Abror Jamolovich Idiboyev

Mustaqil izlanuvchi

Jizzax yuridik texnikumi direktori

e-mail: idiboevabrор@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlar orasida huquqiy madaniyatni rivojlantirishning jamiyatda huquqiy tartibni shakllantirishdagi muhim ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda yoshlarni qonun doirasida harakat qilishga o'rgatish, jinoyatchilikni kamaytirish, o'zaro ishonch muhitini yaratish va davlat bilan hamkorlikni mustahkamlash kabi ijobiy oqibatlariga olib kelishi ta'kidlanadi. Huquqiy madaniyatning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan prinsiplarga asoslanib, nafaqat hozirgi tartibni qo'llab-quvvatlashi, balki kelajakda huquqiy davlatning barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, manipulyatsiya, huquqbuzarlik, huquqiy tartibot.

Insonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda talab darajasida rivojlantirish uzoq davom etadigan serqirra va mashaqqatli faoliyat bo'lib, ularni bolalik davrlaridan boshlab, to umrining oxirigacha huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshirib boriladi. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati, avvalo oila va mahallada shakllanadi, ta'lim jarayonida mustahkamlanadi, mustaqil hayotga qadam qo'ygani sayin esa yanada takomillashadi. Binobarin, shaxsning huquqiy ongi va madaniyati shakllanishi hamda rivojlanishida: tor ma'noda oilaning, mahallaning, ta'lim muassasalarining, tom ma'noda esa davlat va jamiyatning tutgan o'rni shak-shubhasiz kattadir [7]!

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta'limning o'rni beqiyosdir. Huquqiy ta'limning o'ziga xos jihati shundaki, bunda huquqiy bilimlar tartibga solingan, ma'lum bir ketma-ketlikda tizimlashtirilgan, o'zining obyekti va predmetiga ega bo'lgan, aniq tanlab olingan usullar yordamida oilada, uzliksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim muassasalarida, o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylar, professional ta'lim muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiya berish jarayonida yoshlar ongiga singdirib boriladi. Huquqiy ta'lim jarayonida ham ta'lim bosqichlarida huquqqa oid kitoblarni avvalam bor bolalarning yoshi, o'zlashtirish darajasi va qiziqishlariga qarab o'qitilsa ijobiy natijalarga erishiladi [7].

Inson huquqlariga doir jahon andozalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga qo'shimcha Fakultativ protokol hamda boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. Asosiy qonunimiz tarixda sinalgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy tajribasiga tayangan. Jahonning

ma'rifiy rivojlangan mamlakatlari e'tirof etgan huquqiy madaniyat va davlat suvereniteti, demokratiya va xalqaro huquqning ustunligi kabi umumbashariy qadriyatlar O'zbekiston davlatchilik manfaatlariga, xalqning o'ziga xosligiga, uning milliy an'ana va urf-odatlariga to'la mos keladi.

Barchamizga ma'lumki, istiqlolning dastlabki yillaridayoq yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularning tub zamirida esa har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirish maqsadi mujassamdir.

Shu bois yurtimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini yaxshilash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolati hisoblanadi [6].

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilgan ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi [5;27].

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu jamiyat yaratgan ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. U o'z ichiga huquqiy muloqot va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalaridan foydalanish bilan bog'liq xulq-atvor hamda harakatlarning barcha turlarini qamrab oladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati aholining umumiy madaniy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholi madaniyatining siyosiy, ma'naviy, estetik va boshqa turlari bilan o'zaro aloqador hamda inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarining to'liqligi, rivojlanganligi va ta'minlanganligi; qonuniylik va huquqiy tartibot holati; jamiyatda yuridik fan va yuridik ta'limning rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi[5;34].

Yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni va ta'sirini amalda ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy dunyoqarash, bilim va ko'nikmaga ega yoshlarning bilimlarini va demokratik ko'nikmalarini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, uning faoliyat yo'nalishlari belgilab olindi.

Shu bilan birga, bugungi kunda yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqiy immunitetini mustahkamlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda[1].

Bu borada davlatimiz tomonidan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni

hamda 2019-yil 13-dekabrdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-son qarori, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasidagi ko'plab vazifalarni belgilab berdi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelingan, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlash maqsadida qolaversa yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" [2] gi farmoni aynan yangicha talab va ma'suliyatni oshiruvchi asos bo'lib xizmat qilib, unda:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan birgalikda 2024/2025 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda — umumta'lim muassasalari) "Davlat va huquq asoslari" fani chuqurlashtirib o'qitiladigan variativ o'quv rejalari asosida zamonaviy ko'rgazmali o'qitish vositalari bilan ta'minlangan "Huquq sinflari"ni tashkil etish choralari ko'rish va o'quvchilarni "Davlat va huquq asoslari" fanidan maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika olimpiadalarida hamda boshqa tadbirlarda ishtirok etishga tayyorlash [3] vazifasi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-2025 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanib, unga ko'ra quyidagi vazifalar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi:

shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish;

aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish [4].

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi dinamik xarakterga ega bo'lib, har 3-4 yilda ma'lum darajada yangilanish xususiyatiga ega. Huquqiy bilimlar siyosiy saviyani kengaytiradi, hayotda duch keladigan huquqiy hodislarni tushunish va to'g'ri tahlil qilish, qonunlarga amal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bugungi kunda yoshlar axborot oqimining eng faol iste'molchilari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va turli platformalar orqali ularga har

kuni minglab xabarlar yetib keladi. Bunday sharoitda huquqiy madaniyat yoshlarni manipulyatsiyadan himoya qiluvchi muhim qalqon sifatida maydonga chiqadi.

Huquqiy madaniyat, shuningdek, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Ular har qanday taklif yoki ma'lumotni qonun nuqtai nazaridan tahlil qilishni o'rganadi.

O'quvchi yoshlarga huquqiy bilim berishning asosiy maqsadi, ularda huquqiy tushunchalarni shakllantirish va shu asosda huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir. Huquqiy bilim olish jarayonida o'quvchilar Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan o'z huquq va erkinliklarini bilish, ulardan foydalanish va hayotga tatbiq etishga erishishi lozim[8].

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston g'oyasining amaliy ifodasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ro'y berayotgan pozitiv o'zgarishlar yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni rivojlantirib, xalq va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini oshirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni, ayrim kishilar jazodan qo'rqib qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi. Shu bois birinchi navbatda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan «yaxshi» va «yomon», «mumkin» va «mumkin emas» degan tushunchalar o'rtasidagi farqni o'rgatishimiz, o'zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo'lishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart" [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi kengashining 2020-yil 18-may, 274-iv-son Qarori. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-5175351>

2. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.<https://lex.uz/ru/docs/-4149765>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining davlat ta'lim muassasalarida yuridik ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida vazirlar mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarori. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://www.lex.uz/uz/docs/-7086385>

4. 2024-2025 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 18.09.2024 yildagi 588-son qarori, //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.09.2024 й., 09/24/588/0732-сон

5. M.K.Najimov. “Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari”. Monografiya. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti .Toshkent-2019
6. Xaydarova Larisa Sunnatovna, Sherqulov Asadullo Sobir o‘g‘li “Huquqiy madaniyat - fuqarolik jamiyatining poydevori.” “Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 26-mart <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0020/5.38.pdf>
7. Fayzullayev Ilxom Shukurullayevich. Yangi O‘zbekiston yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta’lim va tarbiyaning o‘rni. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10431304>
8. <https://uza.uz/oz/posts/yoshlarning-huquqiy-ongini-shakllantirishda-huquqiy-tarbiyan-03-06-2020>